

KELAJAK AVLODINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH

Odiljonov Ulug’bek Komiljon o‘g’li

Annotatsiya: *Ushbu tezisda yosh avlodni milliy qadriyatlargaga hurmat ruhida tarbiyalashning ahamiyati va dolzarbliги tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlarni yoshlar ongida yuksak axloqiy va ma’naviy fazilatlarni shakllantirishda muhim omil bo’lib, o’z o’zligini anglash, Vatanparvarlik va madaniy merosni asrab-avaylash kabi qadriyatlarni singdiradi. Oila, ta’lim muassasalari, madaniy-ma’rifiy tadbirlar va san’at orqali milliy qadriyatlarni targ’ib qilishning ahamiyati ta’kidlanadi. Milliy qadriyatlarni hurmat qilish yoshlarni chinakam fuqarolik ongiga ega, mas’uliyatli va globallashuv davrida o’z milliy o’zligidan ajralmagan shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.*

Kalit so’zlar: milliy qadriyatlар, yosh avlod, hurmat, tarbiya, Vatanparvarlik, ma’naviyat, madaniy meros, oila, ta’lim, san’at.

Bugungi globalizatsiya davrida yosh avlodni milliy qadriyatlargaga hurmat ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri bo’lib qolmoqda. Milliy qadriyatlarni – bu ajdodlarimizning boy madaniy merosi, urf-odatlari, an’analari va odob-axloq me’yorlari bo’lib, ular orqali kelajak avlodga Vatanparvarlik, odob-axloq, hurmat-ehtirom va insoniylik kabi fazilatlar singdiriladi.

Milliy qadriyatlarni yoshlar ongida yuksak fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ularni yosh avlodga to’g’ri yetkazish esa o’qituvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilik zimmasidagi asosiy vazifalardan biridir. Bu borada oila tarbiyasi, ta’lim muassasalari va madaniy-ma’rifiy tadbirlarning roli beqiyosdir.

Oila – milliy qadriyatlarni va an’analarni avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim bo’g’in hisoblanadi. Ota-onalar farzandlariga kichikligidan milliy qadriyatlarni hurmat qilishni o’rgatishlari lozim. Masalan, ota-onalar bolalariga navruz, hayit bayramlari kabi milliy bayramlarning mohiyatini tushuntirishlari, o’tmish ajdodlarimizning boy merosidan saboq berishlari zarur.

Ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlarni tarbiyalashga e’tibor qaratilishi lozim. Bu jarayonda darslar, milliy an’analalar va qadriyatlarni mavzusida o’tkaziladigan ochiq mashg’ulotlar, tadbirlar, ko’rgazmalar va tanlovlardan muhim rol o’ynaydi. Talabalarga milliy qadriyatlarni haqida bilimlar berish orqali ularning ona Vatanga, milliy madaniyatga bo’lgan hurmatini oshirish mumkin.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirish mumkin. Milliy qadriyatlar mavzusida o'tkaziladigan anjumanlar, ko'rgazmalar, tanlovlari, konsertlar yoshlarning bu boradagi dunyoqarashini boyitadi, ularda milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantiradi. Milliy qadriyatlar yosh avlodga nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ajdodlarimizning merosini qadrlash va uni kelajak avlodlarga yetkazish maqsadini ham o'z ichiga oladi. Shu boisdan, har birimiz bu masalada mas'uliyatli bo'lishimiz va yoshlarimizni milliy qadriyatlarni hurmat qilishga undashimiz lozim. Milliy qadriyatlarni hurmat qilish orqali yosh avlodda milliy g'urur vaiftixor tuyg'ularini shakllantirish ham mumkin. Bu esa o'z navbatida, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'z madaniyati va tarixini chuqur anglashi kerak bo'lgan shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Milliy qadriyatlar yoshlarning shaxsiy rivojlanishida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi va ularni globallashuv jarayonida o'z milliy o'zligidan ajralib qolmasliklariga yordam beradi.

O'z-o'zini anglash, o'zligini tushunish va qadrlash yosh avlodning milliy qadriyatlar asosida tarbiyanishi natijasida amalga oshadi. Bu jarayonda, nafaqat ta'lim muassasalari, balki keng jamoatchilik, ya'ni jamiyatning har bir a'zosi o'z ulushini qo'shishi lozim. Milliy qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda milliy madaniyatimizga oid kontentlarni ko'paytirish orqali yosh avlodda milliy qadriyatlarni hurmat qilish hissini mustahkamlash mumkin.

Shu bilan birga, yoshlarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham katta ahamiyat kasb etadi. Virtual ekskursiyalar, milliy merosimizga bag'ishlangan onlayn kurslar va interaktiv darslar orqali yoshlarimizga milliy qadriyatlarni o'rgatish samarali bo'ladi. Bu esa ular uchun milliy qadriyatlarimizni yanada qiziqarli va qulay o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, milliy qadriyatlarni hurmat qilishni faqat tarbiya va ta'lim jarayonida emas, balki kundalik hayotimizda ham amal qilish orqali mustahkamlashimiz zarur. Yosh avlod har kuni o'z milliy qadriyatlariga amal qilishni, ularni hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qilishni o'rganishi lozim. Buning uchun esa oilalarda, ta'lim muassasalarida va jamoat joylarida milliy qadriyatlarni keng targ'ib qilish va ularga rioya qilish muhimdir.

Kelajak avlodini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – bu nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki butun jamiyatimizning barqarorligi va kelajagi uchun muhimdir. Yoshlarimiz milliy qadriyatlarni hurmat qilgan holda, ularni saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish orqali milliy

madaniyatimizning davomiyligini ta'minlaydi. Shu sababli, har birimiz milliy qadriyatlarni hurmat qilishni kundalik hayotimizning ajralmas qismi sifatida qabul qilaylik va yosh avlodni shu ruhda tarbiyalaylik. Bu orqali biz kelajakda yuksak madaniyatli, o'z milliy qadriyatlariiga hurmat qiladigan, mustaqil va ongli avlodni voyaga yetkazishimiz mumkin bo'ladi. Milliy qadriyatlarni hurmat qilish faqatgina avlodlar o'rtasidagi bog'lanishni mustahkamlab qolmay, balki yoshlarning axloqiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Milliy qadriyatlarni orqali yoshlarni o'zlarining kimligini, tarixini, madaniy merosini va ajdodlarining qadr-qimmatini chuqur anglashadi. Bu jarayon, shuningdek, yoshlarni mas'uliyatli, insonparvar va o'z Vataniga sodiq shaxslar sifatida tarbiyalashga hissa qo'shadi.

Milliy qadriyatlarni hurmat qilish yosh avlodning o'zaro hurmat, muloqot va birdamlik tamoyillariga asoslangan jamiyatda yashashlarini ta'minlaydi. O'z milliy qadriyatlarni hurmat qilgan kishi, boshqa millat va madaniyat vakillarining qadriyatlarni ham hurmat qiladi. Bu esa turli madaniyatlarga ochiqlik, toqatlilik va hamjihatlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Bugungi kunda, globallashuv jarayonida turli millatlar va madaniyatlar o'rtasidagi hamkorlik va muloqot yanada kengayib borayotgan bir paytda, bu fazilatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlarni chinakam fuqarolik ongiga ega bo'lishiga yordam beradi. Vatanparvarlik, davlat ramzlariga hurmat, ona tilini sevish va milliy bayramlarni ulug'lash kabi qadriyatlarni yoshlarda yuksak fuqarolik fazilatlarini rivojlantiradi. Bu esa ularni nafaqat milliy, balki global miqyosda ham to'laqonli va yetuk shaxslar sifatida shakllantiradi.

Yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda adabiyot va san'atning roli ham juda muhimdir. Adabiyot, xalq ertaklari, qo'shiqlar, maqollar va naqlar orqali milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkaziladi. San'at, xalq hunarmandchiligi va musiqiy meros esa milliy qadriyatlarni vizual va estetik jihatdan tarbiyalashda muhim vositadir. Bu san'at va adabiyot asarlari orqali yoshlarni milliy qadriyatlarni bilan yaqindan tanishib, ularni o'z ongida va qalbida mustahkamlab boradi.

Shuningdek, milliy qadriyatlarni tarbiyalash jarayonida xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi alohida o'rin tutadi. Bu qadimiy san'at turlari yosh avlodga nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki milliy merosni saqlash va rivojlantirish bo'yicha mas'uliyatni ham uqtiradi. Bu orqali yoshlarni milliy qadriyatlarni hurmat qilish bilan birga, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ham o'z hissasini qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni milliy qadriyatlargaga hurmat ruhida tarbiyalash nafaqat ular uchun, balki butun jamiyatimiz uchun juda muhim vazifadir. Bu jarayon milliy o‘zlikni anglash, ma'naviyatni yuksaltirish va milliy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Har birimiz yoshlarni milliy qadriyatlarni hurmat qilishga undashimiz va ular uchun milliy merosimizning boyligi, qadriyatlari va urf-odatlarini anglash va ulardan faxrlanish imkoniyatini yaratishimiz kerak. Shu yo'l bilan biz kelajakda mustahkam, madaniyatli va ma'naviy boy avlodni tarbiyalaymiz.

